



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНКА



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



O'ZBEKISTONDA DEPOZIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING YANGI YONDASHUVLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ruzimuratov O.B., Keldiyorov Sherozbek Komiljon o'g'li

НОВЫЕ ПОДХОДЫ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ДЕПОЗИТНОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рузимурастов О.Б., Келдияров Шерозбек Комилжон угли

NEW APPROACHES AND DIRECTIONS FOR IMPROVING DEPOSIT ATTRACTIVENESS IN UZBEKISTAN

O. B. Ruzimuratov, Sherozbek Komiljon o'g'li Keldiyorov

Received: July 1, 2026 Revised: July 6, 2026 Accepted: July 9, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb qilish hamda depozit xizmatlari jozibadorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda depozitlarning bank resurs bazasini shakllantirishdagi ahamiyati, raqamli texnologiyalar asosida omonat xizmatlarini rivojlantirish, foiz siyosatini optimallashtirish, mijozlarga individual yondashuvni kengaytirish hamda innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida depozit portfelining barqarorligini ta'minlash va banklarga bo'lgan ishonchni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: depozit, tijorat banklari, depozit siyosati, bank resurslari, omonatlar, foiz stavkasi, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, innovatsion bank mahsulotlari, depozit jozibadorligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, bank tizimi.

Аннотация. В данной статье анализируются современные подходы к совершенствованию депозитной политики в коммерческих банках, привлечению свободных денежных средств населения и хозяйствующих субъектов в банковскую систему, а также повышению привлекательности депозитных услуг. В исследовании изучено значение депозитов в формировании ресурсной базы банка, развитие депозитных услуг на основе цифровых технологий, оптимизация процентной политики, расширение индивидуального подхода к клиентам и внедрение инновационных банковских продуктов. Также освещены приоритетные направления обеспечения устойчивости депозитного портфеля и укрепления доверия к банкам на основе международного опыта.

Ключевые слова: депозит, коммерческие банки, депозитная политика, банковские ресурсы, вклады, процентная ставка, цифровые банковские услуги, финансовая устойчивость, инновационные банковские продукты, привлекательность депозитов, обслуживание клиентов, банковская система.

Abstract. This article analyzes modern approaches to improving deposit policy in commercial banks, attracting free funds from the population and business entities into the banking system, and increasing the attractiveness of deposit services. The study examines the importance of deposits in forming the bank's resource base, the development of deposit services based on digital technologies, the optimization of interest rate policy, the expansion of an individual approach to clients, and the introduction of innovative banking products. It also highlights priority areas for ensuring the stability of the deposit portfolio and strengthening trust in banks based on international experience.

Keywords: deposit, commercial banks, deposit policy, banking resources, deposits, interest rate, digital banking services, financial stability, innovative banking products, deposit attractiveness, customer service, banking system.



■ KIRISH

Bugungi kunda bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi va iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda depozitlar muhim manba hisoblanadi. Tijorat banklari resurs bazasining asosiy qismini tashkil etuvchi depozit mablag'lari banklarning kreditlash salohiyatini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois depozit siyosatini takomillashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga keng jalb qilish masalasi dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi depozit xizmatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion omonat turlarini joriy etish hamda mijozlarga qulay va ishonchli moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni talab etmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida mobil bank xizmatlari, onlayn omonatlar, masofaviy identifikatsiya tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi bank mahsulotlari depozit jozibadorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Bu esa tijorat banklaridan zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, foiz siyosatini bozor talablariga moslashtirish hamda mijozlar ehtiyojidan kelib chiqib yangi moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bank-moliya tizimini isloh qilish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va aholi ishonchini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bank tizimini isloh qilishga oid farmon va qarorlarda tijorat banklari faoliyatini bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish hamda aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga faol jalb qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmonda bank xizmatlari sifatini oshirish, depozit bazasini kengaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[1].

Shuningdek, Prezidentning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomalarida iqtisodiyotda jamg'armalar ulushini oshirish, moliyaviy resurslarni bank tizimi orqali samarali yo'naltirish hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarurligi qayd etilgan[2]. Bu esa tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish, innovatsion omonat xizmatlarini joriy etish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni talab etadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Depozit siyosatini takomillashtirish va depozit jozibadorligini oshirish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlash, aholi jamg'armalarini bank tizimiga jalb qilish va zamonaviy

bank xizmatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, P. Rose va S. Hudgins o'zlarining *"Bank Management and Financial Services"* nomli ilmiy asarida depozitlar tijorat banklari faoliyatining asosiy moliyaviy manbasi ekanligini ta'kidlaydi[3]. Mualliflarning fikriga ko'ra, banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi, avvalo, barqaror depozit bazasining shakllanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Tadqiqotda foiz stavkalarining moslashuvchanligi, mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish tizimi va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi depozit hajmiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar sifatida baholangan. Shuningdek, mualliflar banklar o'rtasidagi raqobat sharoitida innovatsion omonat mahsulotlarini joriy etish depozit portfelining o'sishiga xizmat qilishini ilmiy asoslab bergan.

F. Mishkinning *"The Economics of Money, Banking, and Financial Markets"* asarida esa bank tizimida ishonch omili depozitlar hajmini oshirishdagi eng muhim iqtisodiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan[4]. Olimning fikricha, mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasining nazorat ostida bo'lishi va bank tizimining likvidligi aholi mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Muallif depozit siyosatini samarali tashkil etish orqali iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini investitsiyalarga yo'naltirish imkoniyati kengayishini ta'kidlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N. G. Karimov tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilib, O'zbekiston bank tizimida depozit xizmatlarini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini qayd etgan[5]. Muallifning fikricha, mobil ilovalar orqali onlayn omonat ochish imkoniyatining kengayishi, mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimining takomillashuvi hamda foiz stavkalarining bozor tamoyillari asosida shakllantirilishi depozit jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda aholi daromadlari va bank tizimiga bo'lgan ishonch darajasi depozitlar hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida baholangan.

Bundan tashqari, B. O. Tursunov tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali depozit bazasini kengaytirish masalalari tahlil qilingan [6]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mobil bank xizmatlari va internet-banking tizimlarining rivojlanishi mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, depozit operatsiyalarining qulayligi va tezkorligini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining resurs salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, depozit jozibadorligini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotga investitsion resurslarni jalb qilish hamda bank xizmatlari sifatini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, innovatsion depozit mahsulotlarini ishlab chiqish va mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda depozit jozibadorligini oshirish va tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish masalalarini o'rganishda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Markaziy bank hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali depozitlar hajmi, foiz stavkalari va aholi omonatlarining o'sish dinamikasi tahlil qilindi. Taqqoslash usuli yordamida O'zbekiston tijorat banklarining depozit siyosati xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida depozit jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, raqamli bank xizmatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va foiz siyosatining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida depozit xizmatlarini rivojlantirish, innovatsion omonat mahsulotlarini joriy etish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida depozit xizmatlarini rivojlantirish va aholi mablag'larini tijorat banklariga keng jalb qilish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda depozit portfelining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, onlayn omonat turlarining joriy etilishi, foiz stavkalarining bozor tamoyillari asosida shakllantirilishi hamda bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortishi depozit bazasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Quyidagi jadvalda 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarida depozitlar hajmi, aholi omonatlari ulushi, yuridik shaxslar depozitlari, o'sish sur'ati va depozitlarning YAIMdagi ulushi bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingan[7].

*1-jadval***O'zbekiston tijorat banklarida depozitlar hajmi va tarkibi dinamikasi**

Yillar	Jami depozitlar hajmi (trln so'm)	Aholi omonatlari (trln so'm)	Yuridik shaxslar depozitlari (trln so'm)	Yillik o'sish sur'ati (%)	Depozitlarning YAIMdagi ulushi (%)
2020	91.0	24.5	66.5	—	15.2
2021	110.2	31.8	78.4	121.1	16.4
2022	146.8	44.6	102.2	133.2	18.9
2023	187.4	61.2	126.2	127.7	21.3
2024	231.5	79.4	152.1	123.5	23.8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig'ida tijorat banklari depozitlari hajmi 91 trillion so'mdan 231,5 trillion so'mga etib, 154 foizga oshgan. Ayniqsa, aholi omonatlarining o'sish sur'ati yuqori bo'lib, 2020-yildagi 24,5 trillion so'mlik ko'rsatkich 2024-yilda 79,4 trillion so'mga etgan. Bu esa aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuridik shaxslar depozitlari ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2020-yilda 66,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 152,1 trillion so'mga etgan. Mazkur holat iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining kengayishi va bank xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishi bilan bog'liqdir.

Depozitlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham yildan yilga ortib borgan. Xususan, 2020-yilda

depozitlarning YAIMdagi ulushi 15,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 23,8 foizga etgan. Bu esa bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini kuchayib borayotganligini anglatadi.

So'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan mobil ilovalar, internet-banking, onlayn omonat ochish xizmatlari va masofaviy identifikatsiya tizimlarining joriy etilishi depozit jozibadorligini oshirishning muhim omiliga aylandi. Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lib, bu omonat xizmatlarining ommalashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, banklar o'rtasida raqobatning kuchayishi natijasida yuqori foizli muddatli omonatlar, kapitalizatsiyalangan foiz tizimlari, bonus va cashback xizmatlari joriy qilinmoqda. Natijada mijozlarning bank omonatlariga qiziqishi ortib, uzoq muddatli depozitlar hajmi kengaymoqda.

O'zbekiston tijorat banklarida muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar tarkibi tahlili [8]

Yillar	Muddatli depozitlar (trln so'm)	Talab qilib olinguncha depozitlar (trln so'm)	Muddatli depozitlar ulushi (%)	Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi (%)	O'rtacha depozit foiz stavkasi (%)
2020	36.4	54.6	40.0	60.0	17.8
2021	47.9	62.3	43.5	56.5	18.5
2022	68.2	78.6	46.5	53.5	19.6
2023	93.7	93.7	50.0	50.0	20.4
2024	125.0	106.5	54.0	46.0	21.2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida muddatli depozitlar hajmi sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2020-yilda 36,4 trillion so'mni tashkil etgan muddatli depozitlar hajmi 2024-yilda 125 trillion so'mga etgan yoki 3,4 barobarga oshgan. Bu esa tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli omonatlar uchun yuqori foiz stavkalari va qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Talab qilib olinguncha depozitlar hajmi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, ularning jami depozitlardagi ulushi bosqichma-bosqich kamaygan. Jumladan, 2020-yilda ushbu turdagi depozitlarning ulushi 60 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 46 foizgacha pasaygan. Bu holat mijozlarning mablag'larini uzoqroq muddatga joylashtirishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, depozit foiz stavkalarining oshirilishi muddatli omonatlar hajmining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, o'rtacha depozit foiz stavkasi 2020-yildagi 17,8 foizdan 2024-yilda 21,2 foizga etgan. Natijada aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan tijorat banklaridagi omonatlarga bo'lgan talab ortgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi muddatli depozitlar ulushining oshishiga xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar orqali omonat ochish, foizlarni avtomatik kapitalizatsiya qilish va onlayn boshqaruv imkoniyatlari mijozlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratmoqda. Ayniqsa, yosh mijozlar orasida onlayn muddatli omonatlarga talab yuqori darajada shakllanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida tijorat banklarida depozit jozibadorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari va depozit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganildi. Olib borilgan tahlillar natijasida so'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida depozitlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi, bunda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, foiz

siyosatining liberallasuvi hamda aholi ishonchining ortishi muhim omil bo'lib xizmat qilayotganligi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, depozitlar tarkibida muddatli omonatlar ulushining oshib borishi banklarning resurs bazasini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, talab qilib olinguncha depozitlar ulushining kamayishi banklar uchun uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirayotganini anglatadi. Raqamli bank xizmatlarining keng joriy etilishi esa depozit operatsiyalarining tezkorligi va qulayligini oshirib, mijozlar bazasining kengayishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim banklarda foiz siyosatining etarli darajada moslashuvchan emasligi, aholining moliyaviy savodxonligi pastligi hamda hududlar kesimida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining notekisligi depozit bozorining yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va depozit jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Moslashuvchan foiz siyosatini joriy etish – inflyatsiya darajasi va bozor talabidan kelib chiqqan holda depozit foiz stavkalarini muntazam qayta ko'rib chiqish.

2. Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish – mobil ilovalar orqali omonat ochish, boshqarish va echib olish jarayonlarini soddalashtirish.

3. Innovatsion depozit mahsulotlarini yaratish – bonusli, kapitalizatsiyalangan va maqsadli jamg'arma omonatlarini joriy etish.

4. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish – bank xizmatlari va jamg'arma madaniyatini targ'ib qiluvchi dasturlarni kengaytirish.

5. Hududiy bank xizmatlari qamrovini kengaytirish – chekka hududlarda bank infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish.



6. Mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish – VIP mijozlar va uzoq muddatli omonatchilar uchun maxsus imtiyozli dasturlarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, depozit jozibadorligini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion resurslarni ko'paytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirib, ularning resurs bazasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida (PF–5992-son Farmon). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nashri. [1]

2. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. [2]

3. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2013). Bank management and financial services (9th ed.). McGraw-Hill Education. [3]

4. Mishkin, F. S. (2019). The economics of money, banking, and financial markets (12th ed.). Pearson Education. [4]

5. Karimov, N. G. (2021). Tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 44–52. [5]

6. Tursunov, B. O. (2022). Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali depozit bazasini kengaytirish masalalari. Moliya va bank ishi, 4(1), 61–69. [6]

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. [7]

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi. [8]

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). O'zbekiston bank tizimi faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent: Markaziy bank. [9]

10. World Bank. (2022). Global financial development report 2022: Financial inclusion and stability. World Bank Publications. [10]

11. World Bank. (2021). Uzbekistan economic update. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan> [11]

12. World Bank. (2021). Uzbekistan economic update. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan> [12]

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ruzimuratov O.B. Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Bank ishi” kafedrasida dotsenti v.b., PhD/ Рузимуратов О.Б. Самаркандский институт экономики и сервиса и.о. доцента кафедры «Банковское дело», PhD/ O.B.Ruzimuratov Samarkand Institute of Economics and Service Acting Associate Professor, Department of Banking, PhD

E-mail: uzolim@mail.ru

ORCID: 0000-0002-0731-2897

2. Keldiyorov Sherozbek Komiljon o'g'li Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi / Келдияров Шерозбек Комилжон угли Самаркандский институт экономики и сервиса студент / Sherozbek Komiljon o'g'li Keldiyorov Samarkand Institute of Economics and Service Student

E-mail: sherozbek_keldiyorov@icloud.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-4464-4744>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz